

QIPCHOQ ATAMASI HAQIDA

Begjigitova Diyora Abdumannob qizi,
Guliston davlat universiteti tayanch doktranti
E-mail: diyoraazizova311@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada qipchoq etnonimining kelib chiqishi, tarixiy manbalardagi talqinlari va turkiy xalqlar etnogenezidagi o'рни yoritiladi. Qipchoqlar turkiy xalqlarning yirik qabilalaridan biri bo'lib, o'zbek xalqi hamda boshqa turkiy xalqlar — qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, tatar va boshqirdlarning etnik tarkibida muhim komponent hisoblanadi. Tadqiqotda qipchoq atamasining paydo bo'lishi haqidagi turli ilmiy qarashlar, jumladan, Mahmud Qoshg'arining "Devonu lug'otit turk" asari hamda Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asaridagi ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, etnonimning etimologiyasi haqidagi zamonaviy turkologik qarashlar ham ko'rib chiqilib, qipchoqlar tarixiy taraqqiyoti va ularning Markaziy Osiyo xalqlari shakllanishidagi ahamiyati ilmiy jihatdan izohlanadi.

Kalit so'zlar: Qipchoq, qipchoq etnonimi, turkiy qabilalar, o'zbek xalqi etnogenezi, Dashti Qipchoq, etimologiya, tarixiy manbalar, turkiy xalqlar.

Abstract. The article examines the origin of the ethnonym Kipchak, its interpretations in historical sources, and its role in the ethnogenesis of Turkic peoples. The Kipchaks are one of the largest tribes of the Turkic peoples and are an important component of the ethnic composition of the Uzbek people and other Turkic peoples - Kazakhs, Kyrgyz, Karakalpaks, Turkmen, Tatars, and Bashkirs. The study analyzes various scientific views on the emergence of the term Kipchak, including information from Mahmud Kashgari's "Devonu Lug'otit Turk" and Abulgazi Bahodirkhan's "Shajarayi Turk". Modern Turkological views on the etymology of the ethnonym are also considered, and the historical development of the Kipchaks and their significance in the formation of the peoples of Central Asia are scientifically explained.

Keywords: Kipchak, Kipchak ethnonym, Turkic tribes, ethnogenesis of the Uzbek people, Dashti Kipchak, etymology, historical sources, Turkic peoples.

Абстрактный. В статье рассматривается происхождение этнонима кипчак, его интерпретации в исторических источниках и его роль в этногенезе тюркских народов. Кипчаки — одно из крупнейших племен тюркских народов и важная составляющая этнического состава узбекского народа и других тюркских народов — казахов, киргизов, каракалпаков, туркменов, татар и башкиров. В исследовании анализируются различные научные взгляды на происхождение термина «кипчак», включая информацию из книги Махмуда Кашгари «Devonu Lug'otit Turk» и книги Абулгази Баходирхана «Shajarayi Turk». В статье также рассматриваются современные тюркологические взгляды на этимологию этнонима, и дается научное объяснение исторического развития кипчаков и их значения в формировании народов Центральной Азии.

Ключевые слова: кипчаки, кипчакский этноним, тюркские племена, этногенез узбекского народа, даштские кипчаки этимология, исторические источники, тюркские народы.

Kirish. Bu borada turli fikrlar mavjud. QIPCHOQLAR (rus manbalarida — poloveslar, Vizantiya manbalarida — kumanlar) nomi bilan atalgan. Turkiy xalqlarning eng yirik qabilalaridan biri; o'zbek xalqi etnik tarkibidagi asosiy komponentlardan biri. Qipchoqlar nafaqat o'zbek xalqi etnogenezida, balki qator boshqa turkiy xalqlar — qozoqlar, qirgizlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, tatarlar, boshqirdlar, oltoyliklar va Shimlar tarkibida ham uchraydi.

Adabiyotlar tahlili. Aslidachi qipchoq atamasi qanday paydo bo'lgan? Professor, qipchoqshunos olim Xudoyberdi Doniyorov bu borada ko'plab izlanishlar olib borgan.

Xususan, u o'zining "O'zbek xalqining shajara va shevalari" asarida Chingizxon vaqtida qipchoqlarning Kunjek degan boshlig'i bo'lganini qayd etgan hamda bu atama XI asrdan ham oldin mavjud ekanligini ko'rsatadi. Qipchoqlar o'zbek xalqining asosiy komponenti hisoblanadi, chunki Mahmud Qoshg'arining "Devonu lug'atit turk" asarida 92 o'zbek urug'i tarkibida mo'g'ullar bilan bir qatorda qipchoq so'zini ham tilga oladi. Hatto ular yashagan Tavar va Qashg'ar shaharlari va tili haqida ham ayrim mulohazalarini berib o'tadi. Ruslar davrida qipchoq atamasi faqat XIV asrda O'rta Osiyoga bostirib kirgan Dashti Qipchoqlar, ya'ni Shayboniyxon qavmiga mansub deya qaralgan aholi tushunilgan, vaholangki, bu elat ular kelmasidan oldin ham Mavounnahr hududida yashagan.

O'z davrining iste'dodli tarixchisi Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida qipchoq va dashtiqipchoq entonimining etnik xususiyatlari borasida shunday fikrlar keltirilgan. "Ulug' podsholarning odatlari turur. Uzoq safarlarga borg'anda ko'chlarin olib bormoq... O'g'uzxonning bir begi ko'chin olib borib erdi. O'zi urushda o'ldi. Xotuni kurtulib ikki suvning orasida xon keyinidan ketdi. Yukli erdi. Tulg'ag' tutdi. Ko'p sovuq erdi. Kirmakka ev yo'q, bir chirik yog'ochning ichinda o'g'lon tug'urdi. Muni xonga ma'lum qildilar, ersa, xon aytdi: "Muning otasi bizning oldimizda o'ldi, g'amxo'ri yo'q",- deb og'ul o'kundi. Otini qipchoq qo'ydi. Qadimgi turk tilida ichi bo'sh yog'ochni qipchoq derlar. Yigit bo'lganidan so'ng Qipchoqqa ko'p el va navkar berib Atil(Itil) suvining yaqasiga yubordi. Uch yuz yil Qipchoq u yerlarda podshohlik qildi." Bundan ko'rinadiki, Abulg'oziy Bahodirxon qipchoq entonimini kishi ismi bilan bog'lagan.

Ayrim manbalarda qipchoqlar tarixi haqida shunday ma'lumotlar berilgan bo'lib, ular miloddan avvalgi III-II asrlarda va milodiy davrlarda Oltoy tog'larining shimoliy-g'arbiy mintaqalarida, Irtish daryosi bo'ylarida, Tarbag'atayning g'arbiy mintaqalarida yashaganlar. Ular asosan turk xoqonliklari tarkibida bo'lgan. Keyinchalik Oltoydan chiqib, Ishim, Tobol daryosi havzalarida va Urol tog'oldi mintaqalari, so'ngra Sirdaryo bo'ylariga kelib o'rnashgan.

Muhokama va natija. Qipchoq so'zining etimologiyasi haqida turli ilmiy qarashlar mavjud. Tilshunos va tarixchilarning fikriga ko'ra, "qipchoq" atamasi qadimgi turkiy tillardan kelib chiqqan. Ba'zi tadqiqotchilar bu so'z qadimgi turkiy "qipčaq / qibčaq" shaklidan kelib chiqqan deb hisoblaydi va "och rangli", "sarg'ish" yoki "sariq tusli" degan ma'noni bildirishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Venger turkologi Gyula Németh qipchoq etnonimi turkiy tillardagi "sariq, och rangli (blond)" ma'nosiga bog'liq bo'lishi mumkinligini yozgan. Bu fikr keyinchalik I. G. Dobrodomov tomonidan ham keltiriladi. U qipchoqlar nomi turkiy tillardagi "sary, sariq" (yellow, light) rang bilan bog'liq etnonimlar bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Manbada aytilishicha, turkiy xalqlarda "sary chechle" (sariq sochli) iborasi och rangli yoki sarg'ish sochli odamni bildirgan va ayrim turkologlar qipchoq etnonimini shunday tashqi belgilar bilan bog'lashgan.

Qipchoqlar urug‘i manbalarda Arshaqiylarga ham borib taqaladi. Bu davlat qadimda sharqiy Eronning qismi, Turkmanistonni va Turkiyaning bir qismini o‘z ichiga olagan. “Arshaq”, ya’ni “ersak” so‘zlari bilan shakllangan. Boshqa mamlakatlarda “kemerlar” deb atalgan. Tarixda bu davlatga “day” qabilasining asoschisi Arshaq asos slogan. Bu davlat 7 ta turk urug‘idan tashkil topgan. Bular imi, imak, tatar, boyandir, qipchoq, xidxaz va islandlardan iborat deya aytiladi. Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanadigan bo‘lsak, bu qipchoq-o‘zbeklar turkiy xalqlarning eng qadimiylaridan va boshqa xalqlar bilan aralashuvi miloddan avvalgi davrlarga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, Qipchoq atamasi bilan bog‘liq kam tilga olinadigan jihatlardan biri shundaki, o‘rta asrlarda qipchoq tili keng hududlarda muloqot vositasi sifatida qo‘llanilgan. XIII–XIV asrlarda Yevroosiyo dashtlarida yashagan qipchoq qabilalari ko‘pligi sababli ularning tili savdo, diplomatik aloqalar va turli xalqlar o‘rtasidagi muloqotda ishlatilgan. Shu sababli ayrim hududlarda qipchoq tili umumiy aloqa tili vazifasini ham bajargan. Bu holat qipchoq tilini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus manbalar yaratilishiga ham sabab bo‘lgan. Masalan, Codex Cumanicus nomli qo‘lyozma qipchoq (kuman) tilini o‘rganish uchun tuzilgan lug‘at va matnlar to‘plamidan iborat. Ushbu asar qipchoq tilining o‘sha davrda qanchalik keng qo‘llanilganini ko‘rsatadigan muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Codex Cumanicus XIII asr oxiri – XIV asr boshlariga tegishli qo‘lyozma manba bo‘lib, u lug‘at va turli matnlar to‘plamidan iborat. Mazkur asar Qora dengiz bo‘yi hududlarida yashagan qipchoqlar (poloveslar) bilan aloqa o‘rnatish hamda missionerlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida yaratilgan. U turkiy tillarning qadimgi yozma yodgorliklaridan biri bo‘lib, o‘rta asr qipchoq (kuman) tilining leksik va grammatik xususiyatlarini o‘rganishda muhim tarixiy manba sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, qo‘lyozma taxminan 1303-yillar atrofida yaratilgan bo‘lib, uning yozilgan joyi sifatida Qrim hududidagi Kafa (hozirgi Feodosiya) shahri tilga olinadi. Asarda bir nechta til — kuman (qipchoq), lotin, fors, nemis va italyan tillari qo‘llangan. Qo‘lyozmaning asl nusxasi hozirda Venetsiyadagi Saint Mark's Library kutubxonasida saqlanadi va u taxminan 82 ta varaqdan iborat. Manba ikki asosiy qismdan tashkil topgan. Birinchi qism ilmiy adabiyotlarda “lotin qismi” deb atalib, u fransiskan missionerlari tomonidan tuzilgan uch tilli — lotin, fors va kuman tillaridagi lug‘atdan iborat. Ikkinchi qismi esa ko‘proq amaliy ehtiyojlarga xizmat qilgan bo‘lib, u savdogarlar tomonidan foydalanilgan “italyan qismi” sifatida tavsiflanadi. Unda kundalik muloqot uchun iboralar, maqollar, topishmoqlar hamda diniy mazmundagi matnlar keltirilgan. Shu jihatdan mazkur qo‘lyozma o‘rta asrlarda turkiy va Yevropa xalqlari o‘rtasidagi til hamda madaniy aloqalarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, bu asar g‘arbiy qipchoq lahjasining so‘z boyligi va grammatik tizimini aks ettiradi. Mazkur lahja keyinchalik qrim-tatar, qorachoy-bolqor kabi ayrim zamonaviy turkiy tillarning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Shuningdek, qo‘lyozma XIII–XIV asrlarda turkiy,

eroniy va roman tillari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va til aloqalarini tadqiq etishda ham katta ilmiy ahamiyatga ega.

Xulosa. Qo'lyozma XVI asrda Venetsiyada qayta aniqlangan va keyingi davrlarda ilmiy muomalaga kiritilgan. XIX asrdan boshlab uning qayta nashrlari hamda ilmiy tadqiqotlari chop etila boshlagan. Hozirgi kunda ham ushbu manba olimlar tomonidan o'rganilib, Qora dengizbo'yi hududlarining etnomadaniy tarixi hamda turkiy yozma an'analarning shakllanish jarayonini tadqiq etishda muhim manba sifatida foydalanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari -T.: "Navro'z", 2017
2. Xudonazarov X. "Shajarayi Turk" va uning o'rganilishi. -T.: "O'qituvchi", 1983
3. Rahmonov N. Turk xoqonligi. -T.: "Abdulla Qodiriy", 1993
4. Kulieva D. "Codex Cumanicus" qo'lyozmasining o'rganilish tarixi. – International Journal of Word Art, 2022.

